
3-SEKTOR HUDUDIDA HAM IFTORLIK DASTURXONI YOZILDI

Prezidentimiz tashabbusi bilan muborak Ramazon oyi kunlarida yurtimiz bo'ylab, aholi vakillari uchun iftorlik dasturxonlari yozilmoqda. Bu kabi xayr-saxovat tadbirlari Toshloq tumanidagi mahallalarida ham bo'lib o'tmoqda.

Bugun 3-sektor hududida 200 nafardan ziyod ijtimoiy ko'makka muhtoj fuqarolar uchun iftorlik tadbiri bo'lib o'tdi.

Inson qadrini ulug'lash, muhtojlarga ko'mak ko'rsatish maqsadida yozilgan to'kin dasturxon atrofida jam bo'lgan nuroniylar yurtimizga tinchlik, oilalarga totuvlik, dasturxonimizga qut-baraka tilab, duo qilishdi.

2023-03-31 08:34:12